



## ITALIYA – O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI ENG YANGI DAVRDA

**Daminov Salim Erkinovich**

daminovsalimbek82@gmail.com

Tel: +998904101018

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10462149>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-January 2024 yil

Ma'qullandi: 04- January 2024 yil

Nashr qilindi: 05- January 2024 yil

### KEY WORDS

XDP , "Nichem", "Fravol" ,  
"Rigoletto", "Tekint" , Rim.

### ABSTRACT

*Ushbu maqola orqali mustaqil izlanuvchilarga Italiya – O‘zbekiston o‘rtasidagi dastlabki siyosiy - iqtisodiy munosabatlar mazmuni hgaqida ma’lumot ulashishdan iborat. Italiya O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yil 10-yanvarda tan olgan. O‘sha yildanoq Toshkentda Italiya elchixonasi ish boshlagan bo‘lsa, O‘zbekistonning Rimdagi diplomatik vakolatxonasi 1998 yilda ochilgan. Florensiyaning Toskana va Umbriya regionlarida 2021-yildan, 2023- yildan esa Milanning Lombardiya va Liguriya regionlarida O‘zbekiston faxriy konsulliklari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning 1-prezidenti Islom Karimov 1996 va 2000 yillarda Italiyaga tashrif buyurgan bo‘lsa, 1997 yilda Italiya prezidenti Oskar Skalfaro hamda o‘sha yili Italiya bosh vaziri Romano Prodi O‘zbekistonga kelgan.*

Italiyada postindustrial jamiyatning asoslari o‘tgan asrning 80-yillarida shakllandi. Keng miqyosda sanoat ishlab chiqarishining texnik bazasi va texnologiyasini yangilash jarayoni – ishlab chiqarishga kompyuter boshqaruv tizimini joriy qilish, robotlardan keng foydala nish boshlandi. Eng asosiysi, bu jarayonning oldingi safida kichik korxonalar bordi. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jadal rivojlanayotgan xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lganlar soni tez o‘ydi. Siyosiy hayotda beqarorlik va hukumat ning tez-tez almashishi Italiya ning o‘ziga xos an‘anasiga aylandi. Italiyada davlat institutlarining chuqur inqirozi, shuningdek, mafi ya tizimlarining faoliyati bilan ham bog‘liq edi. Hokimiyatning yuqori organlarida misli ko‘rilmagan korrupsiya Italiya siyosiy mexanizmining o‘ziga xos tomonlari bo‘lib qoldi. Saylov bu yerda proporsional tizim bo‘yicha o‘tkazildi. 1993-yilgi referendumda Italiya aholisi bunday saylov tizi midan voz kechish uchun ovoz berdi. 1980 – 1990-yillar boshlarida ichki siyosiy jarayonlarga an‘anaviy partiyalarning ta’siri kamaydi. 1991-yili Italiya kommunistik partiyasi tarqalib ketdi. Uning bazasida Liberal-sotsialistik partiya va Kommunistik uyg‘onish partiyasi tashkil qilindi [1].

1992-yil fevral oyida mamlakatda «Halol qo‘llar» kampaniyasi boshlanib, hokimiyatning yuqori qatlami va asosiy partiyalar rahbariyatida omma viy korrupsiya holatlari aniqlandi. Pora olish bilan bog‘liq yangi siyosiy jan jal avj oldi. Yirik tadbirkor lar,

Xristian-demokratlar partiyasi (XDP) va Italiya sotsialistik partiyasi (ISP) yetakchilari, deputatlar va senatorlar, bir necha vazirlar tergovga tortildi. Italiya prezidenti F. Kosiga iste'foga chiqdi. Jami 20 ming kishi tergov ro'yxatiga kiritildi. 1992-yil fevraldan boshlab ikki yil ichida poraxorlikda ayblanib uch mingga yaqin kishi, jumladan, sobiq bosh vazirlar, parlament deputatlari, vazirlar qamoqqa olindi. Hokimiyatning oliy rahbariyati bilan mafiyalar o'rtasidagi aloqani ochib tashlagan sud jarayoni butun jamiyatni hayratga soldi. Qarshilik harakati to'loqida shakllangan partiyaviy-siyosiy tizimning qulashi boshlandi. 1992-yilgi parlament saylovlari asosiy siyosiy partiyalar, jumladan, XDP va ISPning ham jamiyatdagi nufuzi pasayganligini ko'rsatdi. 1993-yili XDP bazasida Italiya xalq partiyasi tuzildi. ISP tarqalib ketdi. 1994-yil martda bo'lib o'tgan parlament saylovlari avvalgi partiyaviy tizimning qulaganligini namoyish qildi. Yangi, hali tanilmagan guruhlar: «Olg'a, Italiya!», «Shimol ligasi», «Milliy alyans» – neofashistlar va o'ng natsionalistlar birlashmasi oldingi maydonga chiqdi. Hukumatni «Shimol ligasi» va «Milliy alyans» koalitsiyasi asosida S. Berlusconi shakllantirdi. Hukumat 1994-yil oxirigacha tura oldi, xolos. Korrupsiyaga qarshi kurash e'lon qilgan S. Berluskonining o'zi soliq qoidalarini buzganlikda ayblandi va iste'foga chiqdi [2].

Italiyaning yangi hukumati partiyasizlardan tashkil qilindi. 1996-yildan hokimiyatda so'z markazchilar koalitsiyasi turdi. Biroq, ijtimoiy ta'minot tizimini o'zgartirishga urinish bilan bog'liq masalalar bo'yicha koalitsiyada kelishmovchiliklar yuz berdi. Ayni paytda bir qator mafiyalar guruhlari boshliqlarining qamalishi jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Silvio Berlusconi Italiya Respublikasi 1992-yil fevralda mamlakatda «Halol qo'llar» kampaniyasi boshlandi. 1993-yilgi referendumda Italiya aholisi proporsional saylov tizimidan voz kechish uchun ovoz berdi. Biroq, bosh vazir Romano Prodi hukumati ichki kelishmovchiliklarni bartaraf qila olmadi va parlamentdagi ustunlikni yo'qotib, 1998-yili iste'foga chiqdi. Massimo D'Alema bosh vazir lavozimini egalladi. M. D'Alema shu paytgacha yuqori darajada saqlanib kelayotgan ishsizlikni qisqartirishni taklif qildi. 2000-yil aprel oyida bo'lib o'tgan mahalliy saylovlarda barcha shimoliy viloyatlarda o'ng kuchlar g'olib chiqdi. Ijtimoiy fikrga «Halol qo'llar» operatsiyasi katta ta'sir ko'rsatdi, katolik cherkovi ham o'nglarni qo'llab-quvvatladi. M. D'Alema iste'foga chiqdi [3].

Zamonaviy Italiya – yuqori darajada rivojlangan industrial mamlakat. XX asrning so'nggi yillarida va XXI asr boshlarida u o'z taraqqiyotida sezilarli natijalarga erishdi. Inflation atsiya ancha pasaydi, ishsizlik kamaydi, yangi korxonalar soni tez o'sdi. Puxta o'ylangan yoshlar siyosati olib borilmoqda. Faqat 1998-yili 12 ming kichik va o'rta biznes korxonalari yaratilgan bo'lib, ularning asosiy qismini yoshlarga qarashli firmalar tashkil qiladi. Ayni paytda Italiya yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan ortda qolmoqda. So'nggi o'n yil ichida Italiyada YIM o'sishi o'z beqarorligi bilan ajralib turadi. Bu faqat 2008 – 2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi bilan bog'liq bo'lmasdan, Italiya iqtisodining o'ziga xos tuzilishi bilan ham bog'liq. YIM kichik bo'lsa-da, doimiy o'sish xarakteriga ega. Ammo davlatning qarzi ham juda katta, hozir u YIMga nisbatan 130% ni tashkil qiladi. 2014-yil fevral oyidan boshlab Italiya hukumatini boshqargan Matteo Renzi so'z larni pasaytirish evaziga italyanlarning daromadini oshirish maqsadini e'lon qildi. U 2015-yildan ta'lim tizimini isloh qilishni ham boshladi. 2016-yil dekabrda bosh vazir lavozimini egallagan Paolo Gentiloni shu siyosatni davom ettirmoqda. XXI asrga kirib kelgan Italiya dunyoning yetakchi mamlakatlari nisbatan texnologik qoloqlikni bartaraf etishga, o'z iqtisodining raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari

ni, iqtisod ning noan' anaviy sohalari – bank faoliyati, turizm, sport va sog'liqni saqlash industriyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratil moqda [4].

Italiya O'zbekiston suverenitetini tan olganidan so'ng ikkala mamlakat o'rtasida savdoiqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga kirishildi. "O'zR bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida" 1996-yil Florensiyada imzolangan bitim o'zaro munosabatlarning huquqiy negizini yaratdi. 1996-yil iyunida va 2000-yil noyababrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenta Islom Karimovning Italiyaga, 1997-yil mayda Italiya prezidenta, 1997-yil sentyabrda Italiya Bosh vazirining O'zbekiston Respublikasiga tashriflari yakunida iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalardagi hamkorlik, ikkiyoklama soliq solinishiga yo'l qo'ymaslik, transport sohasidagi hamkorlik, sayyohlikni rivojlantirish, investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida muhim bitim va shartnomalar imzolandi. Italiya rahbarlariga hamroh bo'lib kelgan savdo-sanoat do'iralarining namoyandalari O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati bilan tanishdilar va o'zbek tadbirkorlari uchun biznes-seminar o'tkazdilar [5].

Mazkur tadbirlarning samarasi o'laroq ikki mamlakat urtasida o'zaro mol yetkazib berish 1992-yilgi 19 mln. 461 ming 800 dollardan 2000-yilda 112,8 mln. dollarga yetgan. Italiya O'zbekiston bilan tovar aylanmasi hajmi jihatidan 10-o'rinda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida Germaniya va Buyuk Britaniyadan so'ng 3-o'rinda. Eng muhimi — aksariyat yillarda O'zbekiston Italiya bilan savdoda ijobiy saldogaga ega bo'lib keldi, ya'ni xarid qilganidan ko'ra ko'proq mahsulot sotdi.

O'zbekiston Italiyaga paxta tolasi, rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar, ipak, ip gazlama, kalava ip va boshqa mahsulotlar sotsa, Italiyadan asbob-uskuna, mebel, plastmassa, go'sht va baliq mahsulotlari, sariyog' va o'simlik yog'i, kiyim-kechak va boshqalarni sotib oladi. Savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish sohasidagi qo'shma tadbirlar faol amalga oshirildi. 1994-yilda Italiya Tashqi savdo instituti va Tashqi savdo uyushmasi rahbar va mutaxassislari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi hamda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Farg'ona, Namangan viloyatlari rahbarlari bilan amaliy uchrashuv o'tkazdilar. 1994-yil iyunda O'zbekiston viloyatlari, shaharlari va tumanlari hokimlarining Italiyaga tashriflari chog'ida ular Italiya savdo palatalari va uyushmalari, sanoat korxonalarini rahbarlari bilan uchrashdilar. Uchrashuvlarda meva-sabzavot mahsulotini qay-ta ishlash, tabiiy tosh qazib olish va qayta ishlash, to'qimachilik, oltinni qayta ishlash, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi [6].

O'zaro hamkorlikka Italiya firma va kompaniyalari g'oyat qiziqib qaraydi. Chunonchi, O'zbekiston va Italiya sayohatchilarini o'zaro kutib olish, jo'natish, ularga xizmat ko'rsatish sohasida shartnoma tuzilgan. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi o'zaro qatnovni yo'lga qo'ygan. "Qoraqalpoq-qurilish materiallari" aksiyadorlik birlashmasi "Pedrini" firmasidan marmar taxtachalar ishlab chiqaradigan liniyalar va "Ravelli" firmasidan tabiiy toshdan buyumlar ishlab chiqaradigan texnologiya liniyalari sotib oldi. "Tekint" kompaniyasi bilan "UzDE-UA v t o" o'rtasida yengil avtomobillar uchun yassi oyna i.ch. zavodini qayta qurish haqida bitim tuzildi. "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi neft konlarini qidirib topish va ishlatish, turli texnologiya asbob-uskunalarini neft va gaz korxonalariga keltirib o'rnatish borasida italyan firmalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Jumladan, Sho'rtan, Ko'kdumaloq korxonalarida noyob italyan asbobuskunalarini o'rnatildi. Shahrisabz, G'azalkent konserva zavodlarida "Sasib Fud" firmasining tomat pastasini yangicha qadoklaydigan

liniyalari ishga tushirildi. "O'zmevasab-zavotuzumsanoatxolding" kompaniyasining "Jefit S.R.L." konserni bilan im-zolagan bitimiga ko'ra, qo'shma ishlab chiqarish, tijorat, vositachilik, marketing, lizing ishlari o'tkazib turiladi [7].

"O'zbekmebel" davlat aksiyadorlik birlashmasi yangi texnologiya va asbob-uskunalar xarid qilish yuzasidan Italiya firmalari bilan yaqin aloqa o'rnatgan. 1994-yilda "Kosta" firmasidan parket va duradgorlik buyumlari ishlab chiqaruvchi texnologiya liniyasi sotib olindi. 1995-yilda "Nichem", "Fravol" firmalaridan xarid qilingan qurilmalar O'zbekistondagi mebel firmalari mahsulotining sifatini oshir-di, mehnat unumdorligini ko'tardi. O'zR Qishloq va suv xo'jaligi, Sog'liqni saqlash vazirliklari, "O'zoziqovqatsanoat", "O'zeltexsanoat" uyushmalari, "O'zfarmsanoat" konserni, "O'zbeksavdo" kompaniyasi, "Yog'moytamakisanoat" uyushmasi ham italyan firmalari bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. O'zR Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Italiyaning 14 banki bilan vakillik munosabati o'rnatgan. Mazkur banklar O'zbekistondagi ko'pgina kurilishlarga moliyaviy mablag' ajratgan. O'zRda italyan kapitali ishtirokidagi 49 ta korxonalar va Italiya kapitali 100% bo'lgan 5 ta korxonalar ro'yxatga olingan. Bu korxonalar alkogolsiz ichimliklar, vino, upa-elik, trikotaj mahsulotlari, xalq iste'mol mollari, muzqaymoq i.ch., paxta chiqitlarini qayta ishlash, savdo-sotiq va vositachilik ishlari bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi huzurida 4 ta italyan firmasining vakolatxonalari ham rasmiylashtirilgan [8].

O'zbekiston bilan Italiya o'rtasida madaniy va ma'rifiy sohalarda ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 1997-yil mayda Italiya prezidenti O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi vaqtida madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik haqida imzolangan bitim ikkala mamlakat xalqlarining tili va adabiyotini o'rganishga, o'quv va ilmiy tadqiqot institutlari, olimlar va tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga, san'at, musiqa, raqs, teatr va kino ustalarining o'zaro muloqotlariga, arxeologiya hamda badiiy merosni o'rganish va saqlash sohasidagi ko'maklashuvga yordam beradi. 1998-yil aprelda Toshkentda bo'lib o'tgan zamonaviy musiqa 3-festivalida qatnashgan italyan artistlari "Ilhom" teatrida konsertlar berishdi va konservatoriyada namunali dars o'tkazishdi. Shu yili iyunda A. Navoiy nomidagi Katta opera va balet teatrida J. Verdining "Rigoletto" operasi Se-bastyano Mariya Salvato tomonidan sahnalashtirildi, noyabrda A. Navoiy nomidagi teatrdagi o'tkaziladigan Verdi festivalida qatnashish uchun kelgan italyan xonandasi Nunsii San-todirokko "Rigoletto" operasida Jilda rolini ijro etdi [9].

Italiya Tashqi ishlar vazirligi italyan tili va adabiyotini o'rganuvchi o'zbek talabalariga o'quv stipendiyalari ajratgan. O'zbekistonlik 7 talaba Italiya akademiyasi va konservatoriyalarida ta'lim oldi. Samarqand chet tillar instituti va O'zbekiston jahon tillari univ. italyan tilidan dars berish uchun Italiyadan malakali muallimlar kelishdi. 1998-yil 13—27 mayda Toshkentdagi San'at muzeyida, 2—12 iyunda Samarqanddagi chet tillar intida rassom Karlo Karr asarlari ko'rgazmasi, shu yili 25—26 oktyabrda Buxoroda, 31 oktyabrda Toshkentda italyan pianinotchisi Pomeransning konsertlari bo'lib o'tdi. 21—30 oktyabrda Milandagi Katolik universitet olimlaridan iborat delegatsiya O'zbekistonda bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi bilan Italiya savdo agentligi o'rtasida restavratsiya sohasida, O'zbekiston madaniyat va san'atni rivojlantirish fondi va Italiya Respublikasi madaniyat vazirligi o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumlar, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2023-2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi hamda 2026-yilga qadar madaniy almashinuvlar dasturi qabul qilindi [10].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Matbuot xizmati
3. . Бажанов Е.П., Бажанова Н.Е. Многополюсный мир. М., 2010.
4. Загорский А.В. Хельсинский процесс: Переговоры в рамках Соперничания по безопасности и сотрудничеству в Европе 1972-1991 гг. М., 2005.
5. .История дипломатии Italy М.,1959-1963 гг. Т.1; II
6. Паномарев В М. История стран Европы и Америки в новейшее время. М.2010
7. Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи. энг янги давр (1918-1945 йиллар).Т.,
8. "Ўзбекистон". 2018.
9. НуриддновЗ.Э. М.Лапасов, Х.Кичкилов Энг янги тарих. Насаф.2010.
10. Нуридднов.З.Э Зокиров Ш.Ш, Исматуллаев Ф.О. Жаҳон тарихи Энг
11. янги давр тарихи. "Инноватсион Зиё" Тошкент 2019.
12. М. Абдураззоқова. XX аср иккинчи ярими Жаҳон тарихи. Маърузалар тўплами. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Тошкент: 2000.
13. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
14. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
15. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.